



**XORAZM JADIDLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI  
ASOSIDA YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Ahmedov Temurjon Yusubbayevich**

Urganch davlat universiteti, Pedagogika fakulteti "Maktabgacha ta'lim  
metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

temurjonnargiza@gmail.com

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i03-p1-04>

**ARTICLE INFO**

Received: 24<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 02<sup>nd</sup> March 2023

Online: 03<sup>rd</sup> March 2023

**KEY WORDS**

*Tarbiyaviy jarayon, barkamol  
inson, ota-ona, oila, pedagog,  
maktab, odob-axloq, tarbiya,  
ma'naviy-axloqiy qadriyatlar,  
milliy qadriyatlar, jamiyat,  
millat, xalq.*

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada Xorazm jadidlarining pedagogik  
qarashlari asosida yoshlar ma'naviy -axloqiy  
kompetensiyalarini takomillashtirish haqida so'z boradi.*

Bugungi kunda Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim -tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rin egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlariga e'tibor kuchaydi. Haqiqatdan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbol rivojlantirish, avvalo, komil insonlarga bog'liq. Chunki bunday insonlar tufayli fan va madaniyat, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanadi. Zero, axloqiy madaniyat vazifalaridan biri komil insonni voyaga yetkazish, uni tarbiyalashdan iborat.

Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitini vujudga keltirishga intiladi.



Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Kishi o'z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar "Avesto" kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbaalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalr merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Axloq-odob insonning jamiyatda bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongni, o'zini-o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodini rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, birovning dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch-qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotining negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat.

Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda boshlang'ich maktab muhim o'rin egallaydi.

Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir.

Iymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik-yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt saodati uchun kurashish ma'suliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish o'qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchining jamiyatga bo'lgan munosabatida milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo'lishi zarur.



Axloq-odob insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining negizini tashkil etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jamiyatga bo'lgan hurmatni yuksaltirish mustaqilligimizni mustahkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishga, axloqiy ongini, o'zini – o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan e'tiqodini rivojlantirishga olib keladi. Maktab o'qituvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bironing dardiga darmon bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va millatimiz kuch – qudratining asosi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning negizi ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntirishlari darkor.

O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi O'zbekiston zaminida yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarni mustahkamlashi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- o'quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatni tarbiyalash;
  - mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
  - atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat;
  - shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.
- Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri-ongli intizom bo'lishidir.

Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir.

Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z xatti-harakatlariga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatni qoralaydi. Intizomli kishi o'z xulq-atvoriga to'g'ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy ma'suliyatni his etadi.

Axloq-odob tarbiyasi milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar axloqiy tarbiyaning hamma tomonlarini qamrab oladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya - ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil etishning forma va metodlariga ega bo'lib, maxsus ravishda o'rganilishi lozim.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o'quv va o'qishdan tashqari xilma-xil faoliyatlarining birligi to'g'risidagi tushunchalar bilan bog'liqdir.

O'quv va ma'naviy-axloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to'ldirishi lozim: Pedagog tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik, ma'lum bir tizimining bo'lishi mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsning tarkib topish jarayoniga rahbarlik qilishni taqozo etadi.

Turkistondagi jadidchilik harakati tasodifiy hodisa bo'lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyotlar mahsulidir.

Jadidchilik jamiyatni to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi.



Jadidlarning ta'lim - tarbiya, odob-ahloq haqidagi fikrlari, g'oyalari, asosan qadimdan islom olamida qaror topgan ma'naviy-ahloqiy qarashlar negizida shakllangan. Jadidlar musulmonlarga xos diyonatilik, saxovatilik, xushaxloqlilik singari ajdodlardan meros fazilatlar bolalar, umuman inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini teran anglashgan. Ayni zamonda ularning pedagogik qarashlarida yangi bir tushuncha ham paydo bo'lgan. Bu ta'lim-tarbiyada muhit - zamon, sharoitning o'rni to'g'risidagi qarashdir. Jadid pedagogikasi ijtimoiy hayot, uning talablari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga qadar mavjud bo'lgan Sharq pedagogikasiga nisbatan bir qadam olg'a siljishga erishgandi. Jadidlarning ta'rifi ko'ra, barkamol inson - bu, eng avvalo, zamonaviy inson, zamonaviy inson esa, millat va Vatan manfaatini barcha narsadan ustun qo'yuvchi, ma'rifatli, diniy bilim va zamonaviy ilm - fan yutuqlarini puxta egallagan, xushaxloq, tarbiyali kishidir.

Jadidlarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi, umuman, pedagogik qarashlari shu bilan xarakterliki, ular ajdodlarimizning bu boradagi qimmatli fikrlarini ilg'or zamonaviy qarashlar bilan uyg'unlashtirganlar. Ularning pedagogik qarashlari teran ijtimoiy asosga, poydevorga ega bo'lganligi uchun hanuzgacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XX asr boshlarida Xiva xonligida shakllangan jadidchilik harakati esa bir qadar boshqacharoq tarixiy shart - sharoitda vujudga kelgan edi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo - sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfondiyorxonning Bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xiva xonligida jadidchilik harakatining so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, Qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish, orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirishi maqsadini qo'yishgan edi. 1904 yilda "Jamiyati xayrir" tuzilib, uning ko'magi bilan o'sha yili 10 - noyabrda Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. Xiva jadidlari ma'rifiy kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy - siyosiy kuchga aylanib, 1914 yil avgustda u partiya shaklini olgan. Xiva xonligidagi jadidchilik harakati yangiliklar tarafdorlari bo'lgan amaldorlar, mahalliy boylar va savdo ahli, taraqqiyparvar musulmon ruhoniylari, madrasa mudarrisleri va toliblari, ma'rifatparvar. Shoirlar maktablar va madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni joriy etish savodxonlik usullarini soddalashtirish o'quvchilarni o'z ona tilida ko'proq o'qitish va xorijiy tillarni o'rganish kabi ma'rifatparvarlik islohotchilik g'oyalari bilan chiqqan kishilar harakati hisoblanadi. Ular sifatida bosh vazir Islomxo'ja, Qozikalon Boboovun Salimov, shoir Avaz O'tar, devonbegi Husainbek Matmurodov, Savdogar Polvoniyoz Hoji Yusupov, sanoatchi boy Nazar Sholikorov, matbaachi-hunarmand Otajon Abdalov, birinchi o'zbek kinooperatori Xudaybergan Devonov, mirzaboshi Muhammad Rasul, xonanda-musiqashunoslar Matyoqub podachi, Otajon Safaev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhamedov, Muhammadyor Hoji Abdullaev, Otajon Xo'janoyozov va boshqalar kirgan. Ularning safi 40 nafardan ziyod kishini tashkil etardi. Har payshanba kechasi goh qalandarxonada, goh Qorako'z masjidida, ko'pincha Xusainbek Matmuroddevonbegi o'g'lining uyida yig'ilishlar (o'tkazilib, qo'shiqlar aytishgan,



she'rxonlik qilishgan, erk, adolat, madaniyat va islohotga doir suhbatlar olib borilgan. Ular jadid adabiyoti va san'atini yaratish bilan cheklanib qolmay, madaniyat va maorif muassasalari tashkil etish, ya'ni yangi usul maktablari, kasalxona, pochta–telegraf ochish, o'quv qo'llanmalari yozish va nashr etish ishlari bilan shug'ullanganlar.

### References:

1. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T.: "Fan va texnologiyalar".2010
2. K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.T.2005
3. N.Jo'rayev. Sh.Karimov. O'zbekiston tarixi (ikkinchi kitob). Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2011.